

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA JAHON VA O'ZBEK ADABIYOTIDAGI LIRIK ASARLARNI QIYOSIY O'QITISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Bunyodova Parizodabonu Bunyod qizi

Urganch davlat pedagogika institute O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablari adabiyot darslarida jahon va o'zbek lirik asarlarini qiyosiy o'qitishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Maqolada komparativistik (qiyosiy) tahlil usullarining o'quvchilar badiiy tafakkuri va estetik didini rivojlantirishdagi o'rne, lirik janrlarning mushtarak va farqli jihatlari xorijiy hamda o'zbek adabiyotshunos olimlarining ilmiy qarashlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, G'arb va Sharq she'riyatidagi o'xshash motivlar aniq misollar (shon-sharaf, sevgi, hayot falsafasi) yordamida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: komparativistika, lirik asar, qiyosiy tahlil, metodika, badiiy tafakkur, g'azal, sonet, adabiy ta'sir, umuminsoniy motivlar.

Аннотация: В данной статье освещаются научно-методические основы сравнительного обучения лирических произведений мировой и узбекской литературы на уроках литературы в общеобразовательных школах. На основе научных взглядов зарубежных и узбекских литературоведов анализируется роль методов компаративистского (сравнительного) анализа в развитии художественного мышления и эстетического вкуса учащихся, общие и отличительные черты лирических жанров. Также на конкретных примерах (мотивы чести, любви, философии жизни) показаны схожие мотивы в поэзии Запада и Востока.

Ключевые слова: компаративистика, лирическое произведение, сравнительный анализ, методика, художественное мышление, газель, сонет, литературное влияние, общечеловеческие мотивы.

Abstract: This article highlights the scientific and methodological foundations of comparative teaching of world and Uzbek lyrical works in literature classes of secondary schools. Based on the scientific views of foreign and Uzbek literary scholars, the role of comparative analysis methods in the development of students' artistic thinking and aesthetic taste, as well as common and distinctive features of lyrical genres, are analyzed. Furthermore, similar motifs in Western and Eastern poetry are demonstrated through specific examples (motifs of honor, love, philosophy of life).

Keywords: comparativism, lyrical work, comparative analysis, methodology, artistic thinking, ghazal, sonnet, literary influence, universal motifs.



KIRISH

Bugungi globallashuv va madaniyatlararo muloqot rivojlangan davrda umumta'lim maktablarida adabiyot fanini o'qitish tizimini tubdan isloh qilish, xususan, o'quvchilarda milliy g'urur bilan birga umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Milliy adabiyotimiz namunalari jahon adabiyoti durdonalari bilan qiyoslab o'rganilganda, o'quvchi badiiy so'zning naqadar cheksiz qudratga ega ekanligini, insoniy kechinmalar va tuyg'ular hudud hamda millat chegaralarini bilmasligini chuqur anglaydi. Lirik asarlarni qiyosiy o'qitish — bu shunchaki ikki she'rni yonma-yon qo'yish emas, balki ulardagi badiiy tasvir vositalari, janr xususiyatlari, ijodkor uslubi va eng muhimi, falsafiy mohiyatni sintez qilish jarayonidir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyot darslarida qiyosiy tahlil (komparativistika) metodologiyasidan foydalanish o'quvchining mustaqil va tanqidiy fikrlash doirasini kengaytiradi. Rus adabiyotshunos olimi V.M. Jirmunskiy qiyosiy adabiyotshunoslikning mohiyati haqida gapirib, turli xalqlar adabiyotidagi o'xshashliklar har doim ham to'g'ridan-to'g'ri ta'sir natijasi bo'lmay, balki ijtimoiy va tarixiy taraqqiyotning mushtarak qonuniyatlaridan kelib chiqishini ta'kidlaydi.

O'zbek adabiyotshunosligida ham lirikani qiyosiy o'rganish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Professor N.Mallaev qayd etganidek, har bir milliy adabiyot jahon adabiy jarayoni bilan uzviy aloqada rivojlanadi va bu aloqalarni o'rganish adabiyotning asl qimmatini belgilashga xizmat qiladi.

Maktab metodikasida qiyosiy tahlilni to'g'ri tashkil etish o'quvchilarning matn ustida ishlash ko'nikmasini oshiradi. Metodist olim sultonmurod Olimovning fikricha, lirik asarni tahlil qilishda o'quvchi his-tuyg'ular olamiga kirib borishi, shoir ruhiyatini his qilishi shart. Buni xorijiy adabiyot bilan parallel olib borish esa o'quvchida dunyoqarash kengligini (panoromik fikrlashni) tarbiyalaydi.

Maktab dasturidagi lirik asarlarni qiyosiy o'qitishda, asosan, janriy o'xshashlik, goya va motivlar yaqinligi hamda badiiy san'atlar uyg'unligi prinsiplariga tayaniladi. 1. Janriy uyg'unlik: Sharq g'azali va G'arb soneti

Sharq mumtoz adabiyotidagi g'azal janri bilan G'arb she'riyatidagi sonet (14 satrlik she'r) o'rtasida kompozitsion va ma'noviy o'xshashliklar mavjud. Masalan, maktab darsliklarida Alisher Navoiy g'azallari bilan Uilyam Shekspir sonetlarini qiyosiy o'rganish yuqori samara beradi. Navoiy o'z g'azalida ishq dardini va yor firoqini koinot miqyosidagi fojia sifatida tasvirlasa: “Kuyganim rahm aylabon dahr ahli yig'lar zor-zor”, “Yig'lamay net sunbulu gul, lola u ashjori ham...”

Shekspir o'zining mashhur 130-sonetida sevgilisini soxta o'xshatishlarsiz, boricha sevishini e'tirof etadi. Ikkala ijodkor ham lirik qahramonning ichki kechinmalarini samimiy,



ammo o'z madaniy muhitidan kelib chiqib go'zal ifodalaydi. O'quvchilar bu yerda Sharqona va G'arbona sevgi talqinini, undagi Sharq she'riyatiga xos mubolag'a va majoz bilan G'arb she'riyatidagi realizm unsurlarini qiyoslaydilar. 2. Dunyoqarash va hayot falsafasi: Umar Xayyom va Alisher Navoiy ruboiylari xorij adabiyoti bilan qiyosda 9-sinf adabiyot darslarida nemis shoiri Iohan Volfgang Gyotening "G'arb-u Sharq devoni" asari o'rganiladi. Gyote Sharq she'riyati, xususan, Hofiz Sheroziy va Navoiy ijodidan ilhomlanib o'z she'rlarini yaratgan.

Gyote she'riyatidagi insoniy erkinlik, hayot mazmuni haqidagi oylanishlar bilan Erkin Vohidov yoki Abdulla Oripov falsafiy she'riyatini qiyoslash darsning interaktivligini ta'minlaydi.

Masalan, Abdulla Oripovning "Genetika" yoki "Bahor" falsafiy she'rlaridagi lirik xavotirlar bilan Gyotening insoniyat kelajagi haqidagi falsafiy o'ylari o'zaro uyg'undir.

Olim Qozoqboy Yo'ldoshev ta'kidlaganidek: "Adabiy ta'limda shunchaki yodlash bosqichidan tahlil va qiyos bosqichiga o'tish shaxsni mustaqil fikrlashga o'rgatishning eng qisqa yo'lidir" [4:112].

Maktab darslarida jahon va o'zbek adabiyoti lirik xazinasini qiyosiy o'qitishda quyidagi metodik zanjirga amal qilish tavsiya etiladi:

1. Venn diagrammasi metodi: Ikki shoir she'ridagi mushtarak va farqli tomonlarni (masalan, ritm, qofiya tizimi, lirik qahramon holati) vizual tarzda solishtirish.

2. Kichik tadqiqot (esse) topshirig'i: O'quvchilarga "Men sevgan o'zbek va jahon shoiri she'riyatida vatan madhi" mavzusida qiyosiy esse yozdirish.

3. Badiiy tarjima tahlili: Jahon adabiyoti namunasining o'zbekcha tarjimasini (masalan, Pushkin she'rlarining Cho'lpon yoki Erkin Vohidov tomonidan qilingan tarjimalarini) original matn va milliy she'riyatimiz an'analari bilan solishtirish.

Tipologik farq: O'zbek asarlarida qahramon ko'proq "xalq va ona-yurt ozodligi" uchun kurashsa, g'arb asarlarida individual boylik va shaxsiy g'alaba motivlari ustunlik qiladi. Bu qiyos o'quvchiga xalqlarning tarixiy rivojlanish bosqichlari va mentalitetidagi o'zgarishlarni anglatadi.

Qiyosiy o'qitish tizimi darsni shunchaki ikki ustunli jadvalga aylantirib qo'ymasligi lozim. Metodik jihatdan avval har bir matn alohida idrok qilinadi, keyin taqqoslanadi, so'ng umumlashtiriladi. A. Zunnunov adabiyot darsida badiiy asarning mazmuni, shakli, obrazlar tizimi va tarbiyaviy-estetik ta'sirini izchil o'rganish zarurligini ta'kidlaydi [3].

Folklor adabiyotini o'qitishda ham uch bosqichli tizim maqsadga muvofiq: matnni mustaqil anglash, qiyosiy tahlil, falsafiy umumlashtirish. Birinchi bosqichda o'quvchi har bir she'rning mavzusi, obrazlari, lirik qahramon kayfiyati va asosiy savolini aniqlaydi.

Ikkinchi bosqichda motivlar, poetik vositalar, tarixiy kontekst va muallif pozitsiyasi qiyoslanadi. Uchinchi bosqichda o'quvchi "har ikki xalq haqida qanday fikr bildiradi?" degan kengroq savolga dalillar asosida javob beradi.





XULOSA VA MUNOZARA

Umumta'lim maktablarida jahon va o'zbek adabiyotidagi lirik asarlarni qiyosiy o'qitish nafaqat o'quvchilarning adabiy savodxonligini oshiradi, balki ularni dunyo madaniyatlari rang-barangligini tushunadigan, keng fikrli shaxs sifatida kamol toptiradi.

Ilmiy va metodik asoslarga tayanilgan bunday darslar milliy she'riyatimizning jahon adabiy jarayonidagi yuksak o'rnini ko'rsatib berishga hamda o'quvchida mutolaaga bo'lgan estetik ehtiyojni shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jirmunskiy V.M. Sravnitelnoye literaturovedeniye. – Leningrad: Nauka, 1979.
2. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1976.
3. Olimov S. Adabiyot o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2010.
4. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996

